


Akademik Baxtiyor Nazarovning 75 yoshi munosabati bilan xalqaro konferensiya o'tkazildi

2020 yil 16-19-sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik Baxtiyor Nazarov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Akademik B.G'afurov nomidagi Xo'jand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qo'qon davlat pedagogika instituti hamkorligida "Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro ilmiy onlayn konferensiya o'tkazildi.





To'rt kun davom etgan konferensiya ishi to'rtta sho'bada olib borildi. Alisher Navoiy sho'basida mumtoz adabiyotni o'rganishning turli masalalari, Muso Toshmuhammad o'g'li Oybek sho'basida zamonaviy adabiyotni, xususan nasriy asarlarni o'rganish va o'rgatish, Abdulla Oripov sho'basi folklor va zamonaviy adabiyotni, xususan she'riy asarlarni o'rganish va o'rgatish, Ozod Sharafiddinov sho'basi folklor, tarjimashunoslik, adabiy aloqalar va adabiyotni o'qitishning turli masalalari haqidagi ma'ruzalar tinglandi va muhokama qilindi, o'zaro fikr almashildi. Har bir sho'bada respublikamiz va xorijdan 40 nafarga yaqin adabiyotshunoslar ishtirok etdi.